

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING OG‘IZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Qurbonboyeva Gulbahor Baxtiyor Qizi

Buxoro inovatsiyalar universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

1-kurs 10.3BT 25-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321394>

Annotatsiya: Ushbu akademik maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning ahamiyati, usullar va samarali pedagogik yondoshuvlari yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish. Hamda to‘g‘ri va ravon nutq shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning ro‘li haqida so‘z yuritiladi. Maqola turli mashqlar, metodlar va didaktik vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar; Boshlang‘ich ta‘lim, og‘zaki nutq, yozma nutq, nutq rivojlantirish, o‘quvchi pedagogik metodlar, so‘z boyligi, mustaqil fikrlash.

Kirish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish bolaning fikrlash va yozma ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar rasmi va interfaol metodlardan foydalanishni tavsiya qilinadi, chunki ular bolalarning ijodkorligi va muloqat qobiliyatini oshiradi. Nutq insoning fikrlash jarayonini, dunyoqarashini muloqat madaniyatini ifodalovchi asosiy vositalardan biridir. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish ta‘lim jarayonini muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarining nutqini rivojlantirish orqali ularning so‘z boyligi ortadi, fikrni aniq, ravon va mantiqiy ifodalash ko‘nikmalari shakllanadi. Og‘zaki nutqni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar dars jarayonida o‘z fikrlarini erkin ayta olishlari, savollarga to‘liq javob berishlari va boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganishlari kerak. Buning uchun o‘qituvchi suhbat, savol-javob, hikoya qilish, rasmlar asosida gap tuzish kabi usullardan foydalanadi. Masalan, biror rasm ko‘rsatilib, o‘quvchilardan rasmda nima tasvirlanganini gapirib berish so‘raladi. Bu usul bolalarning fikrlashini va so‘z boyligini oshiradi. Yozma nutqni rivojlantirish ham boshlang‘ich ta‘limda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar to‘g‘ri yozish, gap tuzish, fikrini yozma ravishda ifodalashni o‘rganadilar. Bunda diktantlar, kichik matn yozish, bayon va insho yozish mashqlari katta yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.05.2025 yildagi PF-76-sonli farmonining asosiy maqsadi ta‘lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash mexanizmlarini belgilash hamda ko‘rsatilayotgan ta‘lim xizmatlari sifatini oshirish hisoblanadi.

Asosiy qism;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika va metodika fanlarida muhim o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalishda ko‘plab olimlar va metodistlar ilmiy tadqiqot olib borgan.

Pedagogik adabiyotlarda ta‘kitlanishicha, boshlang‘ich ta‘lim bosqichda o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish ularning taffakuri, sso‘z boyligi hamda muloqat madaniyatining shakllanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Ona tili darslarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish o‘quvchilarning fikrini aniqlash, ravon va izchil bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodik adabiyotlarda nutqni rivojlantirishda ko'rgazmali vositalar, rasmlar, suhbat, hikoya tuzish, savol-javob kabi usullar samarali ekanligini qayt etilgan. Bunday metodlar o'quvchilarning nutq faolligini oshiradi, ularning fikrlash va tassavur qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda interfaol metodlar, o'yinli topshiriqlar va ijodiy mashqlar muhim ahamiyatga ega. Bu usullar o'quvchilarni mustaqil fikrlashi, matn tuzish ko'nikmasi va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Boshqa ilmiy tadqiqotlarda og'zaki va yozma nutqni integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligi ko'rsatiladi. Tinglab tushinish, gapirish, o'qish va yozish kabi nuyq faoliyatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq o'rganilganda ta'lim samaradorligi oshadi. **Og'zaki nutqni rivojlantirishning ahamiyati**. Og'zaki nutq o'quvchilarning muloqot qilish, fikr almashish va o'z fikrini erkin ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirish uchun suhbat, savol-javob, hikoya tuzish, rolli o'yinlar kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni faol muloqotga jalb qilishi, ularni mustaqil fikr bildirishga undashi kerak. Bunday faoliyat o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi hamda ularning lug'at boyligini kengaytiradi. **Yozma nutqni rivojlantirish usullari**. Yozma nutq o'quvchilarning fikrini izchil, aniq va mantiqiy ifodalashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda yozma nutqni rivojlantirish uchun diktantlar, matn tuzish, bayon va kichik insholar yozish kabi mashg'ulotlardan foydalaniladi.

Bundan tashqari, o'qilgan matn asosida savollarga yozma javob berish, rasmlar asosida hikoya yozish ham o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu usullar o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish va o'z fikrini yozma shaklda ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Nutqni rivojlantirishda o'qituvchining roli. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning nutqini rivojlantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi darslarni qiziqarli tashkil etishi, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undashi va ularga to'g'ri nutq namunalarini ko'rsatishi kerak.

Shuningdek, dars jarayonida turli interfaol metodlar, didaktik o'yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini yanada rivojlantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki yozma nutqni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, muloqat madaniyati va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida turli pedagogik metodlardan foydalanish, o'quvchilarni faol muloqatga jalb qilish hamda yozma mashg'ulotlarni muntazam tashkil etish zarur. Rasmlar va interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini samarali rivojlantirishda muhim vositadir.

Ular quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi;

So'z boyligi va muloqat qobiliyati ;

Yozma va ijodiy ifoda qilish qobiliyati;

Tinglash va tushinish;

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.05.2025 yildagi PF-76-son
2. Axmedova . L. (2020) . Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqni rivojlantirish metodikasi.
3. Karimov. S. (2018) . Interfaol o'qitish metodlari, Toshkent.

4. Safarova. N (2019) rasmi metodlar orqali bolalar nutqini rivojlantirish , Samarqand Pedagogika.
5. Qodirova F. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent.
6. Yo'ldoshev J. Pedagogika asoslari. – Toshkent.